

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

OXUNJON SAFAROV,
RAHMATULLA BARAKAYEV,
BASHORAT JAMILOVA

BOLALAR ADABIYOTI

Bilim sohasi : 100000 - Gumanitar

Ta‘lim sohasi : 110000 - Pedagogika

5111700 – Boshlang‘ich ta‘lim va sport tarbiyaviy ish

5111800 – Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi bakalavrlari uchun

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning tarixiy zaminini mustahkamlash, ayni paytda zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga e'tibor qaratildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarorida yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish va ularni oliy ta'lim muassasalarining ta'lim jarayoniga keng tatbiq etish, oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv, o'quv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlash oliy ta'lim tizimini kelgusida rivojlantirishning eng muhim vazifalari qatorida turishi belgilab berilgan.

Binobarin, professor-o'qituvchilar, olimlar tomonidan oliygoh talabalari uchun fan dasturlariga muvofiq o'quv qo'llanma, darslik, o'quv-usuliy qo'llanmalarini tuzishi dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

"Bolalar adabiyoti" darsligi Oliy o'quv yurtlarining 5111700 – Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish, 5111800 – Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bakalavrlari uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2018- yilning 18.08-sanasi bilan tasdiqlanib, BD-5111700-2.03; BD - 5111800-3.05 raqami bilan qayd etilgan, Nizomiy nomidagi TDPUda ishlab chiqilgan "**Ona tili va bolalar adabiyoti**" fan dasturining (tuzuvchilar– Hamrayev M.A., Pardayev B.O'.) "**Bolalar adabiyoti**" qismi asosida yozilgan.

Unda bolalar adabiyoti fanining nazariy asoslari, uning shakllanishida asosiy omil hisoblanuvchi bolalar folklori hamda bolalar kitobxonligi muammolari, o'zbek bolalar adabiyotining shakllanishi hamda tadrijiy taraqqiyotiga oid ma'lumotlar, jahon va qardosh xalqlar bolalar adabiyotining asosiy tamoyillari, namunalari umumlashtirilgan.

Darslik Buxoro davlat universiteti O'quv-metodik kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar: filologiya fanlari doktori **D.H.Quvvatova**,
filologiya fanlari nomzodi, dots. **B.Ashurov**

Аннотация

После приобретения независимости в стране большое внимание было уделено на образовательно-культурную систему, укрепление его исторического подтекста, на взаимосвязь с современными требованиями. Так же, в постановлении президента ПУ-2909 “О мерах по совершенствованию систему высшего образования” Мирзиёева Ш.М от 20 апреля 2017 года говорится о задачах развития системы высшего образования, отношении ВУЗов учебниками нового поколения и создание их. В этом смысле, является важное составление профессорами, преподавателями, учеными учебных пособий, учебников для учащихся ВУЗов.

Исходя из этого, учебник “Детская литература”, которая предназначена для студентов факультетов ВУЗов 5111700 – Начальное образование и спортивная работа, 5111800 – Дошкольное образование, был утвержден 18.08.2018 года под номером ВД-5111700-2.03, ВД -5111800-3.05. Учебник был написан на основе части «Детская литература» учебной программы «Родной язык и детская литература», (составили – Хамраев М.А., Пардаев Б.У.) которая была издана ТГПУ имени Низами. В учебнике обобщены такие понятия как, теоритические основы детской литературы, детского фольклора, проблемы детского чтения, формирование узбекской детской литературы, основные принципы детской литературы как мировой, так и содружества.

Annotation

After becoming independent in our country great attention was paid to the educational-cultural system, to mutual connection of modern demands and their historical context. Additionally, in the decision of the president Mirziyoev Sh.M. PD-2909 “About the concepts of increasing of the system of higher education” from 20th April of 2017 we can see moments relating higher education system, providing universities with books of new generation.

In this case, the essential point is to make new books, tutorials by scientists, professors and teachers for the students of universities.

Hence, the manual “Children literature”, which was meant for students of faculties of universities 5111700 – Elementary education and sports work, 5111800 – Preschool education, was adopted on 18th of August 2018 under the number of BD-5111700-2.03, **BD -5111800-3.05**. The manual was written on the part “Children literature” of the educational program “Mother tongue and children literature”,(made by Khamraev M.A., Pardaev B.U.) which was published by TSPU of Nizami. In the manual many conceptions such as, theoretical base of children literature, children folklore, problems of childrens reading, formation of uzbek children literature, main principles of world and community children literatures.

I. BOLALAR ADABIYOTI FANINING NAZARIY ASOSLARI

Reja:

1. Kirish
2. Bolalar adabiyoti istilohi haqida tushuncha va uning paydo bo'lish omillari
3. Bolalar adabiyoti fanining predmeti va vazifalari
4. Bolalar kitobxonligi tushunchasi haqida ma'lumot
5. Bolalar adabiyotining umumadabiyotga aloqadorligi
6. Bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari, yoxud adresliligi

MAVZUGA DOIR TAYANCH TUSHUNCHALAR: *istiloh, qo'llanma, xrestomatiya, omil, genezis, so'qma so'z, munaqqid, muqallid, nasr, nosir, nashr, noshir, muharrir, musavvir, matbuot, kitobchilik, xarakter, tur, janr, dinamizm, emotsionallik, lirik, komik, matbaa, realistik, badii, fiziologik, biologik, biografik, dialektizm, sujet, publitsistika, detektiv, fantastik, dilogiya, trilogiya, tetralogiya.*

O'zbek bolalar adabiyotining so'z san'ati sifatidagi ulug'vor vazifasi va tarbiyachilik vositasi istiqloq yillarida alohida e'tiborga tushdi. Respublikamizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Adabiyotga e'tibor– ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" yo'riqnomasida adabiyot, so'z san'ati azaldan xalq qalbining ifodachisi ekanligi ta'kidlab ko'rsatilar ekan, jumladan shunday deyilgan: "Ayniqsa, biz uchun g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lgan bolalar adabiyotini rivojlantirishga alohida e'tibor berishimiz, mustaqil fikrlaydigan shaxslarning shakllanishi, har qanday kitobxonlik, mutolaa madaniyati bolalikdan boshlanishini doimo yodda tutishimiz lozim".¹

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2017 yil 9 sentabrda e'lon qilingan "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida alohida belgilab berilganidek, bolalikdan kitob o'qishga qiziqish uyg'otuvchi o'quv-metodik, didaktik materiallar va badiiy adabiyotlarni tayyorlash haqidagi², 2017 yil 13 sentabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarorlari ham bu fanning maqsad mohiyatini oydinlashtirishga yordam beradi.

Chindan ham bu jiddiy vazifani bajarishda, aniqrog'i, mustaqil yurtning har tomonlama yetuk, barkamol avlodini tarbiyalashda asrlar osha xalq an'analari, milliy qadriyatlar, folklor namunalari, milliy adabiyotimiz va jahon xalqlari

¹Bu haqda qarang: Ўзбекистон адабиёти ва санъати. // 2009 йил, 3 июль

²Bu haqda qarang: "Халқ сўзи". 2017, 11 сентябрь